

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XO‘JAYEVA NAFISAXON TOSHEMIROVNA

***FRITILLARIA SEVERZOWII* – OLG‘I DORIVOR O‘SIMLIGINING
KIMYOVIY TARKIBI, FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA
TABOBATDA QO‘LLANILISHI**

14.00.41 – Xalq tabobati

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Хо‘jayeva Nafisaxon Toshtemirovna

Fritillaria severzowii – o‘lg‘i dorivor o‘simligining kimyoviy tarkibi, farmakologik xususiyatlari va tabobatda qo‘llanilishi 3

Хужаева Нафисахон Тоштемировна

Химический состав, фармакологические свойства и применение в народной медицине лекарственного растения *Fritillaria severzowii* – Рябчика Северцова 21

Khujaeva Nafisakxon Toshtemirovna

Chemical composition, pharmacological properties and use in folk medicine of the medicinal plant *Fritillaria severzowii* – Fritillary 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XO‘JAYEVA NAFISAXON TOSHEMIROVNA

***FRITILLARIA SEVERZOWII* – OLG‘I DORIVOR O‘SIMLIGINING
KIMYOVIY TARKIBI, FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA
TABOBATDA QO‘LLANILISHI**

14.00.41 – Xalq tabobati

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/K896 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.kokandsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Avdug‘aniyev Baxtiyor Yormaxamatovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xojimatov Maxsadbek Muydinovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Mamatqulova Surayyoxon Abdusamatovna
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoq‘on davlat universiteti huzuridagi PhD.03/08.05.2025.K/T.130.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150700, Qoq‘on sh., Turon ko‘chasi, 23. Tel: +998735423838, +998735420257, faks +998735423838. e-mail: kokandsu@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 150700, Qoq‘on sh., Turon ko‘chasi, 23. Tel: +998735423838, +998735420257, faks +998735423838. e-mail: kokandsu@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Y.X.Xolboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi o‘rinbosari, k.f.d., dotsent

N.V.Valiyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

G‘.M.Ochilov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD)) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xalq tabobati usullari yordamida turli kasalliklarni davolash va oldini olishda dorivor o'simliklar markaziy o'rinni egallaydi. Tarkibida biologik faol kimyoviy birikmalarni saqlagan dorivor o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari ulardagi turli sinflarga mansub moddalarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga bog'liq ekanligi ularning eng muhim jihati hisoblanadi. Dorivor o'simliklardan xalq tabobatida foydalanishning samaradorligini oshirishda ularning kimyoviy tarkibini batafsil tahlil qilish masalalari butun dunyo bo'ylab ushbu sohadagi mutaxassislarning tadqiqot predmetiga aylangan. Shuningdek, dunyo aholisi soni tobora ortib borayotgan sharoitda, maishiy turmush va sanoatning tobora kimyolashib borishi muhitida tabiiy birikmalar manbai bo'lgan dorivor o'simliklar yordamida, xalq tabobati vositalaridan foydalanish masalalari bugungi kunning ilmiy asoslangan yechim talab qiluvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar va ularning madaniylashtirilgan turlarini fitokimyoviy o'rganish, ular asosida biofaol mahsulotlar ishlab chiqishga qaratilgan keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada inson ichki kasalliklari, jumladan jigar to'qimalari kasalliklarida terapevtik samara beruvchi, shuningdek jigar kasalliklarini profilaktika qilishda xalq tabobati usulariga ko'ra, dorivor o'simliklardan foydalanilish, xalq tabobatida qo'llanib kelinayotdan dorivor osimliklarni kimyoviy tarkibini o'rganish va uning asosida standartlangan vositalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning dorivor o'simliklarga boy florasi borligi, floraning aksariyat vakillari xalq tabobatida muvaffaqiyatli qo'llanilishi, turli hududlarda o'suvchi o'simliklarning kimyoviy tarkibini zamonaviy usullar bilan fitokimyoviy tekshirish, yaqqol fiziologik faollik namoyon qilgan birikmalarni ajratib olish hamda ular asosida biologik faol qo'shimchalar va dori vositalarini olish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish"¹ bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mahalliy dorivor o'simliklar ikkilamchi metabolitlari asosida ayrim kasalliklarni oldini olish va davolash xossasiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqish, ularni standartlashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4668-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur yo'nalishga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» va VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. *Fritillaria (Korolkowia)* turkumiga mansub o'simlik turlari kimyoviy tarkibini va biologik faoligini o'rganish sohasida xorijning yetakchi ilmiy markazlarida K.Roguz, A.Bajguz, M.Chmur, A.Gołębiewska, M.Zych, Q.Zhao, B.Li, Y.Guan, X.Meng, F.Wu, N.Rønsted, S.Law, H.Thornton, M.Fay, M.Chase, M.Tian, Y.Sun, C.Wu, X.Liu, S.Bian, H.Cai, Y.Cui, C.Xiao, M.Mohammadi, V.Safavizadeh, M.Yousefi, A.Hosseini va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Shuningdek, MDH davlatlari olimlaridan A.Tursynbay, Zh.Karzhaubekova, N.Gemejiyeva, D.Muraseva, A.Erst, D.Shaulo, D.Kulxanovalar tomonidan o'simliklarning ekstraktlarini o'rganish borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbekistonda mazkur turkum o'simliklarining kimyoviy tarkibini, jumladan *Fritillaria (Korolkowia) severzowii* o'simligining alkaloidlarini kimyoviy, fizik-kimyoviy va farmakologik o'rganish borasida V.Kulkova, K.Samikov, R.Shakirov, D.Abdullayeva, R.Nuriddinov, A.Saidxo'jayev, B.Tashxadjayev, Q.Turg'unov, D.Safayeva kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Biroq, O'zbekistonda o'sadigan *Fritillaria (Korolkowia) severzowii* o'simligining alkaloidlaridan boshqa sinf birikmalari: flavonoidlari, vitaminlari, oqsillari va aminokislotalari, kimyoviy elementlari o'rganilmagan hamda ushbu o'simliklarni kimyoviy tarkibi asosida standartlash yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shuningdek, ushbu o'simlikni an'anaviy tabobatda qo'llanishining ilmiy asoslari o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "*Fritillaria severzowii* o'simligining kimyoviy komponentlarini tadqiq qilish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda o'suvchi *Fritillaria severzowii* o'simligi tarkibidagi flavonoidlar, vitaminlar, oqsillar, aminokislotalar, polisaxaridlar, makro- va mikroelementlarni, o'simlik ekstraktlarining farmakologik xususiyatlarini aniqlash hamda biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Fritillaria severzowii o'simligi yer osti va yer usti organlaridan ekstraktlar olish ular tarkibidagi umumiy oqsillarni hamda aminokislota tarkibini sifat va miqdoriy aniqlash;

yuqori samarali xromatografik usullarda, standart namunalarga taqqoslash orqali flavonoidlarni aniqlash;

o'simlikning turli organlarida saqlanuvchi suvda eruvchan vitaminlarni sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash va vitamin manbai sifatida baholash;

uglevodlar, jumladan umumiy polisaxaridlar miqdorini gravimetrik o'lchash orqali ularning o'simlikdagi boshqa komponentlar orasidagi ulushini tahlil qilish;

aniqlik darajasi yuqori bo'lgan zamonaviy spektral usullar vositasida *F. severzowii* o'simligi turli organlaridagi makro- va mikroelementlar, o'gir metallarni sifat va tarkib bo'yicha o'rganish hamda buning asosida *F. severzowii*ni dorivor o'simlik xomashyosi sifatida foydalanish xavfsizligini ochib berish;

o'simlikning aniqlangan kimyoviy tarkibi asosida ekstrakt olish yoki uning fraksiyasini olish, uning o'tkir zaharlilik ko'rsatkichi bo'yicha toksik darajasini hamda *in vivo* sharoitida fiziologik faollik turini aniqlash;

aniqlangan faollik asosida muayyan kasallik turida qo'llash uchun biologik faol mahsulotlar olish;

biologik faol qo'shimchani standartlash va undan amalda foydalanish imkonini beruvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonda o'suvchi *Fritillaria severzowii* o'simligining turli organlari va ularning tarkibidagi biologik faol birikmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini *Fritillaria severzowii* o'simligining fitokimyoviy, toksikologik va farmakologik xossalari hamda kimyoviy tarkibi asosida standartlanishi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda o'simliklardan birikmalarni ajratishda ekstraksiya, tozalash, dekantatsiya, fraksiyalash, gidroliz, YuQX, YuSSX kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor *F. severzowii* o'simligi tarkibidagi flavanoidlar va vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida o'simlik organlari kesimida alohida-alohida o'rganilgan hamda miqdoriy baholangan, natijada ushbu flavonoid tarkibi ochib berilgan, shuningdek o'simlik B₂ vitaminining yuqori miqdordagi manbai ekanligi isbotlangan;

F. severzowii o'simligining oqsil moddalari va ularning aminokislota tarkibini birinchi marta aniqlangan bo'lib uning asosida o'simlikning yer osti qismi oqsillari tarkibida barcha muhim aminokislotalar mavjudligi isbotlangan;

F. severzowii o'simligining makro- va mikro'elementlari ilk bor tadqiq etilgan, tarkibidagi nisbatan yuqori miqdorlardagi (K, Ca, Mg, Na, S, P, Fe) hamda zararli elementlar (Cr, Cu, Ni, Li, V)ning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan, jami 30 ta kimyoviy elementning har biri spektr sohasiga ko'ra aniqlangan;

o'simlik yer ostki qismi ekstrakti etilasetatli fraksiyasining o'tkir zaharlilik ko'rsatkichini o'rganish natijasida uning LD₅₀ ko'rsatkichi 736,0 mg/kg ekanligi aniqlangan, bu ko'rsatkich orqali fraksiyaning o'tkir zaharliligi jihatidan kam zaharli moddalar guruhiga, ya'ni IV sinfga kirishi isbotlangan;

olingan fraksiyaning gepatoprotektor faolligi Fosfogliv preparatiga nisbatan qiyoslash asosida *F. severzowii* o'simligi ekstraktining 25.0 mg/kg dozada berilishi hayvonlardagi zaharlanish oqibatlarini kamaytirish, zaharlanish alomatlarini bartaraf etilayotganligini ko'rsatgan hamda sog'lom hayvonlardagi biokimyoviy ko'rsatkichlarga yaqin qiymatlarga kelishi orqali preparatning yaqqol terapevtik samaraga ega ekanligini ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

F. severzowii o'simligi yer ostki qismi moddalari asosida gepatoprotektor faollikka ega bo'lgan "Naf-ol" biologik faol choyi ishlab chiqilgan;

"Naf-ol" choyining organoleptik ko'rsatkichlari, fizik-kimyoviy xususiyatlari va tovar tavsiflarini belgilab beruvchi me'yorlar belgilab berilgan hamda ushbu me'yorlar asosida mahsulot standartlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ajratib olingan moddalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik usullar, yuqori samarali xromatografik usullar va standart moddalar bilan taqqoslash usullaridan foydalanganligi hamda olingan natijalar oxirgi yillarda chop etilgan jahon adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslagan holda tahlil qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda o'suvchi *F. severzowii* o'simligining kimyoviy birikmalari: makro- va mikroelementlar, oqsillar hamda ularning aminokislotalar tarkibi, suvda eruvchan vitaminlari, flavanoidi, polisaxaridlari hamda ularning monosaxarid tarkibi, ushbu moddalar guruhining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari, shuningdek o'simlikdan ajratib olingan birikmalarning biologik faolligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *F. severzowii* o'simligi yer ostki qismidan olingan biofaol birikmalar asosida jigarni himoyalovchi, gepatitning A va B shakllarida kasallik asoratlarini kamaytirib, qondagi fermentlar miqdorini me'yorlashtiruvchi biologik faol qo'shimcha yaratilganligi, mazkur biofaol mahsulot uchun texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilib, vakolatli davlat organlari ekspertizasidan o'tkazilganligi hamda tasdiqlanganligi, shuningdek biofaol mahsulotning klinik amaliyotda samaradorligi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *F. severzowii* o'simligining organlar kimyoviy tarkibini aniqlash, ajratilgan moddalarning biologik faolligini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston hududida o'suvchi *F. severzowii* o'simligining kimyoviy komponentlarini sifat va miqdoriy aniqlashda usul va uslublar Bioorganik kimyo institutining "O'simliklar hashoratlar, tarkibidan yangi biologik faol birikmalarni ajratib olish, tozalash, individual birikmalarga ajratish va ular asosida yangi hosilalarini sintez qilish hamda biologik faolliklarini o'rganish" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar dasturlarini bajarilishida o'simlik ildizi, poyasi va barglari tarkibidagi moddalar miqdori ularning gepatoprotektorlik faollikni namoyon qilishini aniqlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 28 iyuldagi №4/1255-1833-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibida biofaol

flavonoidlar saqlovchi o‘simlik xomashyolari asosida gepatoprotektor faollikka ega bo‘lgan substansiyalar ishlab chiqish imkonini bergan;

F. severzowii o‘simligini kimyoviy tadqiq etishning nazariy xulosalari va amaliy natijalari asosida biologik faol moddalar saqlagan o‘simlik xomashyosi tarkibidagi birikmalarni o‘simlik organlaridan olinishi, fraksiyalanishi va ajratilishi bo‘yicha ishlab chiqilgan sxemalari Rossiya Federatsiyasi Surgut davlat universitetining “Shimol rezavorlari va dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyalari va biologik faol birikmalarini ajratib olish” mavzusidagi amaliy tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Rossiya Federatsiyasi Xanti-Mansiysk avtonom okrugi – Yugra “Surgut davlat universiteti” byudjet oliy ta’lim tashkilotining 2025 yil 24 iyuldagi №03-01/93-son ma’lumotnomasi). Natijada Rossiya hududidagi shimol rezavorlari va dorivor o‘simliklardan biologik faol birikmalarini yuqori unumlarda ajratib olish hamda katta aniqlikda sifat va miqdoriy baholash imkonini bergan;

F. severzowii o‘simligi asosida olingan “Naf-ol” shifobaxsh choyini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqilib, TY 204136479-001:2025 raqami bilan ro‘yxatga olingan hamda ushbu yo‘riqnoma asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologik nazorat boshqarmasi tomonidan sanitariya-epidemiologik xulosasi olingan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologik nazorat boshqarmasining 2025 yil 11 iyuldagi №023479-sonli xulosasi). Natijada, *F. severzowii* o‘simligi biofaol birikmalari asosida gepatit A va B kasalliklarida qondagi fermentlar miqdorini me’yorlashtiruvchi gepatoprotektor ta’sirga ega shifobaxsh choy ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy maqola, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlarda 5 ta va xalqaro ilmiy jurnalda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANINIG ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’jekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «*Fritillaria severzowii* o‘simligining umumiy tavsifi, kimyoviy tarkibi hamda biofaol birikmalarining fiziologik xususiyatlari. Dorivor o‘simliklarning xalq tabobatidagi ahamiyati» nomli birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy izlanishlarning sharhi keltirilgan bo‘lib, u *Fritillaria* turkumining ba’zi o‘simliklari, ulardan ajratib olingan kimyoviy birikmalar hamda ularning biologik faolliklari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, dorivor o‘simliklarning xalq tabobatida qo‘llanilishi to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan. Bulardan tashqari xalq tabobatining ilmiy asoslarini ishlab chiqishning zamonaviy holati tanqidiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “*Fritillaria severzowii* o‘simligining kimyoviy tarkibini o‘rganish yuzasidan tajribalar va ularning natijalari” deb nomlangan ikkinchi bobida tanlangan tadqiqot ob’ektining organik kimyoviy komponentlarini va noorganik tarkibini elementlar hisobida majmuaviy holatda o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarni amalga oshirish tartiblari bayon etilgan.

Oqsillar va aminokislotalar. Dastlab o‘simlik yer ostki qismi – piyozlari, yer ustki qismi – poyasi, bargi va gullari tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini aniqlash K’eldal usuli bo‘yicha azotni aniqlashdan, so‘ngra aniqlangan azotni oqsilga nisbatan qayta hisoblash orqali umumiy oqsillar miqdori aniqlandi. Unga ko‘ra ildizi 7,782; poyasi 3,044; bargi 8,681 va guli 13,93% oqsil saqlashi aniqlandi. So‘ngra Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida o‘simlik organlarining aminokislotalar tarkibi aniqlangan bo‘lib, natijalar 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

F. severzowii o‘simligi yer ostki qismining aminokislotalar tarkibi

№	Aminokislota nomi	Konsentratsiya, mg/gr	№	Aminokislota nomi	Konsentratsiya, mg/gr
1.	Asparagin	0,23879	11.	Prolin	0,355031
2.	Glutamin	0,083228	12.	Tirozin	0,084394
3.	Serin	0,213967	13.	Valin	0,039222
4.	Glitsin	0,173763	14.	Metionin	0,040428
5.	Asparagin	0,347847	15.	Izoleytsin	0,149628
6.	Glutamin	0,132138	16.	Leytsin	0,021588
7.	Sistein	0,430055	17.	Gistidin	0,016565
8.	Treonin	0,077387	18.	Triptofan	0,069224
9.	Arginin	0,264875	19.	Fenilalanin	0,051173
10.	Alanin	0,417353	20.	Lizin	0,026453
Jami: 3,233107					

1-jadvalga ko‘ra, aminokislotalar miqdori gistidin → leytsin → lizin → valin → metionin → fenilalanin → triptofan → treonin → glutamin → tirozin → glutamin → izoleytsin → glitsin → serin → asparagin → arginin → asparagin → prolin → alanin → sistein tartibida ortib boradi.


Flavonoidlar. Bu guruh moddalari tahlili ham YuSSX usuli yordamida aniqlangan bo‘lib, izokratik elyutsiya rejimi va diodli detektordan foydalanilgan. Xromatogrammalarni tahlil qilishdan olingan natijalar 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval

***F. severzowii* o‘simligi turli organlari tarkibidagi flavonoidlar va ularning miqdoriy ko‘rsatkichlari, mg/100 g**

№	Flavonoidlar	Ildizi	Ildiz poyasi	Poyasi	Bargi	Guli
1	Robinin	1,04	–	–	–	–
2	Rutin	–	–	–	9,535	–
3	Apigenin	1,23	18,148	16,14	48,148	31,58
4	Giperazid	–	–	4,375	41,741	3,754
5	Gall kislota	–	16,461	36,311	179,133	88,356
6	Izorarnetin 3-D glyukoza	0,36	–	–	–	–
7	Kversetin	1,95	–	–	–	–
8	Lyuteonin	–	–	–	–	–

Tadqiq qilingan barcha namunalarda gall kislotasi yuqori miqdorga ega. Flavonoidlarning eng ko‘p miqdori bargi va gullarida (179,133 va 88,356 mg/100 g), eng kam miqdori (0,36 mg/100 g) ildizida aniqlangan. Natijalarning grafik ifodasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.




1-rasm. *F. severzowii* o‘simligining turli organlaridan aniqlangan flavonoidlar miqdorining grafik ifodasi

F. severzowii o‘simligining flavonoid tarkibini tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik ildizida robinin, kversetin, izoramnetin 3-D glyukoza kabi flavonoid mavjud bo‘lib, ular o‘simlik yer ustki qismida aniqlanmadi. O‘simlik ildizi

namunasidan aniqlangan va miqdor jihatdan ikkinchi bo‘lib turgan yana bir flavonoid bu apigenin bo‘lib, u o‘simlikni yer ustki qismining barcha organlarida boshqa flavonoidlarga nisbatan ko‘proq miqdorda mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, o‘simlik bargi va gulida apigenin flavanoidi ko‘proq miqdorda aniqlangan. Umuman olganda, o‘simlikning guli va bargi tarkibida eng ko‘p miqdorda flavonoidlar mavjudligi namoyon bo‘ladi.

Vitaminlar. Dorivor o‘simliklar biofaol birikmalarining yana bir sinfi bu vitaminlar bo‘lib, ularning organizm hayotiy faoliyatidagi biokimyoviy o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shu sababli, o‘simlikning vitaminlar tarkibi o‘rganib chiqildi. Vitaminlarning suvda eruvchan guruhi YuSSX usulida tahlil qilindi (xromatogramma 2-rasmda berilgan).



2-rasm. *F. severzowii* o‘simligi yer ostki qismi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar xromatogrammasi

Natijalar 3-jadvalda keltiriladi.

3-jadval

***F. severzowii* o‘simligi yer ostki qismi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdoriy analiz natijalari**

№	Vitamin	Miqdori mg/100g	№	Vitamin	Miqdori mg/100g
1	B ₁	—	5	C	—
2	B ₆	—	6	B ₂	5,308
3	B ₉	0,018	7	B ₁₂	0,087
4	PP	—			

F. severzowii o‘simligi yer ostki qismida B₂ vitaminining yuqori miqdori ushbu o‘simlik turidan biofaol mahsulotlar va qo‘shimchalar olish samarali bo‘lishidan darak beradi.

Polisaxaridlar. *Fritillaria severzowii* o‘simligining uglevodlar tarkibini batafsil o‘rganish uchun galaktomannanlar, suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari, gemisellyulozalar kabi guruhlarga ko‘ra aniqlandi. Maydalab quritilgan o‘simlik namunalarini dastlab xloroform-metanol erituvchilari aralashmasining 1:1 nisbatidagi aralashmasi bilan yog‘sizlantirildi (yog‘ tabiatli va moysimon

moddalardan tozalash). Soʻngra 82%-li etil spirtining suvli eritmasi bilan ekstraksiya qilindi. Yuqoridagi usullarda ishlov berilgan oʻsimlik namunalari toʻliq quritilib, suvda eruvchan polisaxaridlar iliq suvda ajratib olindi. Pektin moddalari oksalat kislotasining 0,5% eritmasi va ammoniy oksalat eritmasi bilan, gemisellyulozalar ishqorning 5% eritmasi bilan ajratildi.


Polisaxaridlarning monosaxarid tarkibi toʻliq kislotali gidrolizat yordamida QX va GX usullariga koʻra aniqlandi. Dastlabki natijalarga koʻra, oʻsimlik organlaridan ajratib olingan polisaxaridlar oʻzining monosaxarid tarkibiga koʻra arabinoglyukogalaktanlar guruhiga mansub. Polisaxaridlarning monosaxarid tarkibi haqidagi umumlashtirilgan maʼlumotlar monosaxaridlar qoldiqlariga nisbatlari boʻyicha quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

F. *severzowii* oʻsimligi uglevodlarining monosaxaridlar tarkibi

Polisaxarid turi	Oʻsimlik quruq massasiga nisbatan unum, %	Monosaxaridlar qoldiqlari nisbatlari					
		<i>Rha</i>	<i>Ara</i>	<i>Xyl</i>	<i>Glc</i>	<i>Gal</i>	<i>UA, %</i>
Oʻsimlik guli							
SEPS*	2.5	1.2	2.5	1.0	3.0	3.1	28
PM**	2.8	1.0	2.3	1.0	3.2	3.5	41
GMS***	6.5	2.3	2.4	5.0	2.0	1.0	46
Yer ostki qismi							
SEPS	3.6	1.5	2.2	1.0	5.2	2.0	25
PM	1.1	1.4	1.8	1.2	5.0	1.0	56
GMS	1.0	1.8	1.8	3.5	2.3	1.2	40
Yer ustki qism							
SEPS	2.1	1.1	1.8	1.0	2.2	2.5	20
PM	3.3	1.0	2.1	1.8	3.8	2.0	52
GMS	7.0	1.0	2.4	4.0	1.5	1.5	43
* – suvda eruvchan polisaxarid, ** – pektin moddalari, *** – gemisellyuloza							

Jadvalga koʻra, polisaxaridlar oʻsimlik organlari boʻyicha turli miqdorlarda tarqalgan: suvda eruvchan polisaxaridlar oʻsimlikning yer ostki qismida 3,6%, gullari va yer ustki organlarida har birida 2% dan ortiqroq. Pektin moddalari va gemisellyulozalar oʻsimlikning yer ustki qismida koʻproq toʻplangan boʻlib, mos ravishda 3,3 va 7,0% ni takshkil etadi. Glyukan moddasi unchalik katta boʻlmagan miqdorlarda yer ostki qismdan aniqlandi. Yer ustki organlarda esa asosan arabinogalaktanlar mavjud boʻladi. Quyidagi 3-rasmda oʻsimlikning piyozlaridagi GMSlarning GX usulida olingan xromatogrammasi koʻrsatilgan.



3-rasm. *F. severzowii* o‘simligi piyozlaridagi GMSlarning GX usulida olingan xromatogrammasi

O‘simlikning turli organlaridan ajratilgan SEPSlar och-jigarrang tusdagi amorf kukunlar bo‘lib, ular suvda erigan vaqtda kichik nisbiy qovushqoqlikdagi (1,1 dan 2,25 dl/g) eritmalarini hosil qiladi. PM jigarrang kukunlar bo‘lib, ularning katta miqdori yer ustki qismidan 3,3% hisobida ajratildi, ildizlarda esa 1,1% natija olindi. Ular monosaxarid tarkibiga ko‘ra katta miqdorlarda glyukoza, galaktoza va arabinoza mavjudligi bilan farqlanadi. PM titrimetrik analizida ularning past darajadagi eterifikatsiyalangan birikmalar ekanligini ko‘rish mumkin (5-jadval).

5-jadval

***Fritillaria severzowii* o‘simligidan ajratilgan SEPS va PMLarning titrimetrik ko‘rsakichlari**

Polisaxarid turi	* K_{er} , %	** K_{et} , %	*** K_{um} , %	**** λ , %
Gullari				
SEPS	10.0	23.0	33.0	30.0
PM	16.0	28.0	44.0	36.0
Yer ostki qismi				
SEPS	28.0	19.0	47.0	59.5
PM	18.6	16.0	34.6	54.0
Yer ustki qismi				
SEPS	14.0	20.0	34.0	41.0
PM	17.8	32.0	50.2	34.2
* – erkin karboksil guruhlar; ** – eterifikatsiyalangan karboksil guruhlar; *** – umumiy karboksil guruhlar; **** – eterifikatsiya darajasi				


Gemisellyulozalar – to‘q-jigarrang kukun bo‘lib, ishqor eritmalarida yaxshi eriydi, yod bilan reaksiya natijasi manfiy bo‘ladi. GMSlarning monosaxaridlar tarkibi keskin farq qilmaydi, biroq ayrim monosaxaridlar miqdorida o‘zgarishlar

kuzatiladi. Masalan, asosiy monosaxaridlar ksiloza, arabinoza, glyukoza va galaktoza bo'lsa, ular orasida ksilozaning miqdor jihatdan ustunligi namoyon bo'ladi. Bu holat GMSlar uchun tasnifiy belgilardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, *F. severzowii* o'simligining turli organlaridan ajratilgan polisaxaridlar va ularning monosaxaridlar tarkibi tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, SEPSlarning miqdori o'simlikning yer ustki organlariga qaraganda piyozlarda ko'proq to'planadi. Ularning tuzilishiga ko'ra arabinoglyukogalaktanlar sinfiga kiritiladi. PM va GMSlar o'simlikning yer ustki organlarida nisbatan ko'proq miqdorlarda saqlanadi. Ajratilgan polisaxaridlar monosaxarid tarkibiga ko'ra geteropolisaxaridlar turkumiga kiradi, PMLar esa quyi darajada eterifikatsiyalangan pektin moddalari qatoriga kiradi.

4-rasmda *Fritillaria severzowii* o'simligi yer ostki qismidan ajratilgan SEPS, PM va GMSlarning IQ-spektrrogrammalari ko'rsatilgan.





4-rasm. *F. severzowii* o‘simligi yer ostki qismidan ajratilgan SEPS, PM va GMSlarning IQ-spektrogrammalari (a – SEPS; b – PM; c – GMS)

Namunalarning IQ-spektrlarida turli intensivlikka ega bo‘lgan bir turdagi yutilish sohalari kuzatiladi. 3600-3000 cm^{-1} sohada $-\text{OH}$ guruhlariga xos bo‘lgan intensiv yutilish sohalari paydo bo‘ladi. Undan keyin 2900 va 2800 cm^{-1} sohalarda intensivligi past bo‘lgan yutilish sohalari namoyon bo‘lib, ular CH -guruhlar mavjudligidan dalolat beradi. 1658 va 1654 cm^{-1} sohalardagi yutilishlar ancha intensiv, ulardan tashqari 1539 va 1538 cm^{-1} sohalarda aytarli darajadagi yutilishlar ko‘rinadi. Bu holat polisaxaridlar uchun yot hisoblanadi. 1658 va 1654 cm^{-1} sohalardagi intensiv yutilishlarni kristallizatsiya suviga tegishli deformatsion tebranishlarga tegishli, deb taxmin qilish mumkin. Spektrogrammalardagi $-\text{C}-\text{O}-\text{H}$, $-\text{C}-\text{O}-\text{C}-$ va shu kabi fragmentlar sellyulozaga tegishli signallar hisoblanadi. α va β glikozid bog‘lari esa 700-100 cm^{-1} sohalarda intensiv yutilish chiziqlarini beradi.

Noorganik tarkib. Dastlab *F. severzowii* o‘simligini turli organlari – yer osti, poyasi, barglari va gullarini alohida-alohida holatda qoldiq kul miqdori aniqlandi. Natijada, o‘simlikning gullari eng kam – 7,11% qoldiq kulga ega bo‘lishi namoyon bo‘ladi, miqdor bo‘yicha keyingi o‘rinda poyalar – 8,87%, yer osti qismida 12,81%, eng yuqori ko‘rsatkich barglarga tegishli bo‘lib, undagi qoldiq kul miqdori 13,29% tashkil etmoqda.

Tajribalar davomida o‘simlikning turli organlari kimyoviy elementlari o‘rganildi. Bunda ishlov berilmagan piyoz, yuvilgan piyoz, ekstrakt fraksiyalari suvida analizlar o‘tkazildi. Tayyorlangan namunalarning elementar tarkibi Avio 200 ISP-OES qurilmasida optik emission spektrometrik usulida aniqlandi.

6-jadvalda *F. severzowii* o‘simligining ishlov berilmagan piyoz namunasi, suv bilan ekstraksiya qilingandan keyingi piyoz qoldig‘i – shrot namunasi va suvli ekstraktlarning 1 va 4 fraksiyalardagi elementlarini miqdoriy o‘rganish natijalari keltirilgan.

F. severzowii o‘simligining makro- va mikroelementlar tahlili

№	Element	λ , nm	Piyozi namunasi	Yuvilgan piyoz	1-fraktsiya mg/10g	4-fraktsiya mg/10g
1.	Li	670.784	0,114	0,061	0.200	0,064
2.	Al	396.153	2,676	2,532	1,192	0,721
3.	Mo	202.031	0,094	0.000	0,000	0.000
4.	Te	214.281	0.000	0.000	0.000	0.000
5.	Se	196.026	0.000	0.000	0,000	0.000
6.	Sr	407.771	0,064	0,026	0,126	0,113
7.	Sb	206.836	0,030	0,007	0.000	0,010
8.	Sn	283.998	0,052	0,066	0.000	0,610
9.	K	766.490	226,378	38,491	298,38	1039,481
10.	Ba	233.527	0.000	0.000	0,017	0.000
11.	Cr	267.716	0.000	0.000	0,000	0.000
12.	Mn	257.610	0,171	0,049	0.312	0,380
13.	B	249.677	0,202	0,032	0,134	0,418
14.	As	193.696	0.000	0.000	0.000	0.000
15.	Na	589.592	3,301	2,738	2,218	4,972
16.	Pb	220.353	0,031	0,033	0,213	0,053
17.	Cd	228.802	0.000	0.000	0.000	0.000
18.	V	292.464	0.000	0.000	0,087	0.000
19.	Ni	231.604	0.000	0.000	0,000	0.000
20.	Zn	206.200	23,085	3,463	3,029	22,026
21.	Cu	327.393	0,564	0,306	0,086	0,186
22.	Ca	317.933	12,708	4,524	3,823	20,993
23.	Si	251.611	3,740	3,372	0,064	1,154
24.	Fe	238.204	2,096	2,049	1,050	2,259
25.	Ag	181.975	0.000	0.000	0.000	0.000
26.	Hg	253.652	0.000	0.000	0.000	0.000
27.	Co	228.616	0.000	0.000	0.006	0.000
28.	P	213.617	25,447	8,594	47,019	114,231
29.	S	181.975	2,648	2,240	17,051	3,275
30.	Mg	285.213	6,570	1,917	13,049	35,812

O‘simlik piyoz namunasi va suv bilan ekstraksiya qilingandan so‘ngi quritilgan piyoz namunasi elementlarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, K, Ca, P, Zn va Mg kabi elementlar miqdori o‘simlik piyozida ko‘proq miqdorda bo‘lgan va o‘simlik piyozini yuvilgan ekstraktida miqdor jihatdan sezilarli darajada kamayganini ko‘rish mumkin. Shuningdek o‘simlik tarkibida alyuminiy Al, kremniy Si, temir Fe, oltingugurt S va natriy Na kabi makro- va mikro- elementlar ham miqdor jihatdan kamroq bo‘lsada, boshqa elementlarga qaraganda nisbatan ko‘proqdir. *F. severzowii* o‘simligining barcha organlaridagi makro va mikroelementlar taxlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘simlikning barcha a‘zolarida kaliy, kaltsiy, magniy kabi makroelementlar va temir miqdori ko‘proqdir. Kaliyning miqdori ildizdan tanaga, undan bargiga va guliga o‘tgan sari kamayib borishini ko‘rish mumkin. Kaltsiy va magniy elementlari o‘simlik ildizi va bargida,

tanasi va gulidagidan ko‘proqdir. Ammo temir miqdori ildizdan bargiga o‘tgan sari kamayib boradi hamda o‘simlik gulida umuman uchramaydi.

Dissertatsiya ishining **“Fritillaria severzovii o‘simligi kimyoviy birikmalarining biologik faolligini o‘rganish yuzasidan tajribalar va ularning natijalari”** nomli uchinchi bobida *F. severzovii* o‘simligi yer ostki qismidan olingan komponentlarning fiziologik ta’sirlari, biologik faolliklari, biosamaradorlik ko‘rsatkichlari laboratoriya sharoitida hayvonlarda o‘rganib chiqildi. Unga ko‘ra, kalamushlarda CCl₄ ning nisbatan kichik dozalari bilan uzoq muddatli zaharlanishi bilan surunkali gepatitning shakllanishini tavsiflovchi jigarning metabolik va funksional holatida patologik o‘zgarishlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatildi. Gepatotsitlar sitolizi kuchayganligi qon zardobida ALT va AST fermentlarining faolligi oshishidan dalolat beradi. Xolestazning rivojlanishi ishqoriy fosfataza faolligining oshishi bilan namoyon bo‘ladi, bundan tashqari, progressiv giperbilirubinemiya kuzatiladi; qon zardobida, asosan, albumin tufayli umumiy protein miqdori sezilarli darajada pasayadi.

Qayd etilgan ko‘rsatkichlardagi barcha bu salbiy o‘zgarishlar uglerod tetraxloridni qabul qilishning tugashi bilan shunchalik kuchli ifodalanganiki, hatto ushbu toksikantni in’yeksiya qilish to‘xtatilgandan keyin bir hafta o‘tgach, ularni normallashtirishga nisbatan juda zaif va ishonchsiz tendentsiya kuzatilgan (7-jadval).

7-jadval

Uglerod tetraxlorid bilan chaqirilgan surunkali gepatitli kalamushlarda *F. severzovii* etilasetatli fraksiyasi ikkilamchi metabolitlarining va fosfogliv preparatining ba’zi biokimyoviy qon parametrlarining o‘zgarishlar dinamikasiga ta’siri (M±m, n=6)

Tajriba sharoiti	Intakt hayvonlar	CCl ₄ yuborish (nazorat)	CCl ₄ + <i>F. severzovii</i> (25 mg/kg)	CCl ₄ + <i>F. severzovii</i> (50 mg/kg)	CCl ₄ + fosfogliv
Modda kiritilishi	–	28 kun	28 + 7	28 + 7	28 + 7
AlAT mkmol/l	1,06±0,04	2,72±0,15*	2,10±0,12**	2,21±0,10**	2,28±0,14**
AsAT mkmol/l	1,57±0,06	2,26±0,12*	1,78±0,10	1,78±0,14	1,88±0,12
ALP,U/L	174±6.4	231±11,4*	190±10,8	196±9,6*	194±11,0*
Umum. bilirubin, mkmol/l	6,35±0,20	14,32±0,36*	10,12±0,38**	10,92±0.32	10,38±0,32**
Bilvosita bilirubin mkmol/l	1,96±0,08	6,27±0.15*	4,22±0.20**	4,18±0.12**	4,90±0.26
Umum. oqsil, g%	7,6±0,14	6,3±0,13	7,2±0,13	6,8±0 .09*	7,0±0.20
Albumin, g%	2,91±0,06	2,54±0,06	2,89± 0,10**	2,66±0.12	2,74±0.08**
<i>Eslatma: * – intakt hayvonlarga nisb.; ** – nazorat hayvonlarga nisb. ishonchlilik (p<0,05)</i>					

Ushbu fonda o‘rganilayotgan fraksiya buyurilganda, xuddi fosfogliv kabi, jigarning sitolitik-xolestatik shikastlanishining sezilarli darajada oldini oladi,

jigarning oqsil va glikogen sintezlovchi funksiyalarini saqlaydi, uning yog‘li degeneratsiyasini kamaytiradi, pigment metabolizmini oshiradi. Bundan tashqari, kalamushlarga o‘rganilayotgan fraksiya va fosfoglivni keyingi ikki hafta davomida CCl₄ ni to‘xtatilgandan keyin davom ettirish bilan, birinchi holda, jigarning metabolik-funksional holatining deyarli to‘liq normallasishi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning **“Fritillaria severzowii o‘simligi biofaol birikmalari asosida shifobaxsh choy ishlab chiqish va tabobatda qo‘llash natijalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida *F. severzowii* o‘simligi piyozlarining biofaol moddalari ustida o‘tkazilgan farmakologik-toksikologik tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, o‘simlikning piyoz qismidan choy ko‘rinishidagi biofaol mahsulot ishlab chiqilishi hamda uning klinik sharoitda samaradorligini aniqlash natijalari bayon etiladi. Shifobaxsh choyning iste‘mol shakli “Naf-OI” deb nomlandi (8-jadval).

8-jadval

“Naf-OI” choyining fizik-kimyoviy tavsifi

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘rnatilgan me‘yor
1	Namligi, massa ulush, % dan ko‘p emas	8
2	Eruvchan ekstraktiv moddalar miqdori, massa ulush, % dan kam emas Qora choy bilan qo‘llanilganda Ko‘k choy bilan qo‘llanilganda	28 30
3	Metallomagnit qo‘shimchalar, massa ulush, % dan ko‘p emas	0,0007
4	Umumiy kul miqdori, % dan ko‘p emas	10
5	Eruvchan kul miqdori, massa ulush, % dan kam emas Qora choy bilan qo‘llanilganda Ko‘k choy bilan qo‘llanilganda	45 40

Olingan ilmiy ma‘lumotlar asosida “Naf-OI” shifobaxsh choyini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma tayyorlandi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan ekspertizadan o‘tkazildi. Texnologik yo‘riqnoma TY 204136479-01:2025 raqami bilan ro‘yxatga olindi. “Naf-OI” shifobaxsh choyini davolash va profilaktik maqsadlarda qo‘llash uchun biofaol mahsulotni O‘zR SSV 0366-19 Sanitar me‘yorlar va qoidalar talablariga mosligi tadqiq etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologik nazorat boshqarmasi tomonidan №023479-sonli xulosasi olindi va biologik faol mahsulot sifatida amaliyotda qo‘llash ruxsatiga erishildi.

XULOSALAR

Fritillaria severzowii o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganish, undagi biofaol kimyoviy komponentlarning farmakologik faolliklarini aniqlash hamda aniqlangan samarador faollik asosida shifobaxsh mahsulot ishlab chiqish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. *F. severzowii* o'simligi tarkibidagi flavanoidlar va vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida o'simlik organlari kesimida alohida-alohida o'rganilgan hamda miqdoriy baholangan, natijada ushbu o'simlikning B₂ vitaminining yuqori miqdordagi manbai ekanligi isbotlangan;
2. *F. severzowii* o'simligining oqsil moddalari miqdori ildizida 7,782%, poyasi 3,044%, barglari 8,681% va gullari 13,93% miqdorida oqsil moddalari saqlashi hamda ularning aminokislota tarkibini birinchi marta aniqlangan hamda uning asosida o'simlikning yer ostki qismi oqsillari tarkibida barcha muhim aminokislotalar mavjudligi isbotlangan.
3. *F. severzowii* o'simligining turli organlaridan ajratilgan polisaxaridlar va ularning monosaxaridlar tarkibi birinchi bor tahlil etilgan bo'lib, infraqizil spektroskopiya tahlillariga ko'ra, ular tuzilishi bo'yicha geteropolisaxaridlar turkumining arabinoglyukogalaktanlar sinfiga kirishi, pektin moddalari esa quyi darajada eterifikatsiyalangan moddalari qatoriga kirishi isbotlangan;
4. O'rganilayotgan o'simlikning elementar tarkibi birinchi marta tahlil etilgan. O'simlik xomashyosidan shifobaxsh choy ishlab chiqishda makro- va mikroelementlar, ayniqsa og'ir metallarning miqdoriy o'zgarishlari qayd etib borildi hamda bu natijalardan tayyor mahsulot xavfsizligini nazorat qilishda foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan;
5. O'simlik yer ostki qismi ekstraktining etilasetatli fraksiyasining o'tkir zaharlilik ko'rsatkichini o'rganish natijasida uning LD₅₀ ko'rsatkichi 736.0 mg/kg ekanligi aniqlangan, bu ko'rsatkich orqali fraksiyaning o'tkir zaharliligi jihatidan kam zaharli moddalar guruhiga, ya'ni IV sinfga kirishi isbotlangan;
6. Olingan fraksiyaning gepatoprotektor faolligi Fosfogliv preparatiga nisbatan qiyosiy o'rganilgan, natijada *F. severzowii* o'simligi ekstraktining 25.0 mg/kg dozada berilishi hayvonlardagi zaharlanish holatini birmuncha yaxshilab, zaharlanish alomatlarini bartaraf etilayotganligi hamda sog'lom hayvonlardagi biokimyoviy ko'rsatkichlarga yaqin qiymatlarga kelishi orqali preparatning yaqqol terapevtik samaraga ega ekanligini ochib berilgan;
7. Amaliy tadqiqotlar natijasida *F. severzowii* o'simligi yer ostki qismi biofaol moddalari asosida "Naf-OI" shifobaxsh choyi resepturasi ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologik nazorat boshqarmasi tomonidan №023479-sonli xulosasi olindi va biologik faol mahsulot sifatida amaliyotda qo'llash uchun ruxsati olingan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/08.05.2025.К/Т.130.04
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
КОКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУЖАЕВА НАФИСАХОН ТОШТЕМИРОВА

**ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ, ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И
ПРИМЕНЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО
РАСТЕНИЯ *FRITILLARIA SEVERZOWII* – РЯБЧИКА СЕВЕРЦОВА**

14.00.41 – Народная медицина

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Коканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/K896.

Диссертация выполнена в Кокандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета (www.kokandsu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Абдуганиев Бахтиёр Ёрмахаматович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хожиматов Махсадбек Муйдинович
доктор химических наук, профессор

Маматкулова Сурайёхон Абдусаматовна
доктор химических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита состоится «_____» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного Совета PhD.03/08.05.2025.К/Т.130.04 при Кокандском государственном университете (Адрес: 150700, г.Коканд, ул.Турана, 23. Тел.: +998735423838, +998735420257, факс +998735423838. e-mail: kokandsu@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского государственного университета (регистрационный номер № _____). (Адрес: 150700, г.Коканд, ул.Турана, 23. Тел.: +998735423838, +998735420257, факс +998735423838. e-mail: kokandsu@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан: «_____» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки _____ от «_____» _____ 2025 года).

Ю.Х.Холбоев

Заместитель председателя Научного совета по
присуждению ученой степени, д.х.н., доцент

Н.В.Валиев

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученой степени, д.ф.т.н. (PhD), доцент

Г.М.Очилов

Председатель Научного семинара при Научном совете по
присуждению ученой степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире лекарственные растения занимают центральное место в лечении и профилактике различных заболеваний методами народной медицины. Важнейшим аспектом лекарственных растений является то, что лечебные свойства лекарственных растений, содержащих биологически активные химические соединения, зависят от качественных и количественных характеристик входящих в них веществ, принадлежащих к различным классам. С целью повышения эффективности использования лекарственных растений в народной медицине вопросы детального анализа их химического состава стали предметом исследований специалистов в этой области во всем мире. Также, в условиях растущего населения мира, в условиях нарастающей химизации быта и промышленности, применение методов народной медицины с использованием лекарственных растений, являющихся источником природных соединений, является одной из актуальных проблем современности, требующих научно обоснованного решения.

В мире проводятся обширные научные исследования по изучению фитохимического состава дикорастущих лекарственных растений и их культивируемых видов, а также разработке на их основе биологически активных препаратов. В этой связи особое внимание уделяется использованию лекарственных растений в народной медицине, оказывающих лечебное действие при заболеваниях внутренних органов человека, в том числе печени, а также профилактике заболеваний печени, изучению химического состава лекарственных растений, используемых в народной медицине, и разработке на их основе стандартизированных препаратов.

Наша республика обладает богатой флорой лекарственных растений, большинство ее представителей успешно используются в народной медицине, достигаются определенные результаты в фитохимическом исследовании химического состава растений, произрастающих в различных регионах, с использованием современных методов, выделении соединений, обладающих выраженной физиологической активностью, и получении на их основе биологически активных добавок и лекарственных средств. В стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи по «увеличению предложения продовольственных и непродовольственных товаров на рынках и устранению сезонного дефицита»². Исходя из этих задач, важна разработка препаратов, обладающих свойствами профилактики и лечения некоторых заболеваний на основе вторичных метаболитов местных лекарственных растений, и их стандартизация.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан за №ПП-4668 от 10 апреля 2020 года «О

² Указ Президента Республики Узбекистан за №УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» и за №ПП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональное использование имеющихся ресурсов», Указах Президента Республики Узбекистан за №УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и за №5229 от 7 ноября 2017 года «О мерах по кардинальному совершенствованию системы управления фармацевтической отраслю», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VI. «Медицина и фармакология» и VII. «Химические технологии ва нанотехнологии».

